

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

**O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH
USLUBIYATI KAFEDRASI**



“Himoya qilishga ruxsat beraman”
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani
_____ dots. Musayev A.
“ ____ ” _____ 2012 y.

5141100-o‘zbek tili va adabiyoti ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun

**“Ona tili darslarida iboralar va tasviriy vositalardan
foydalanish”**
mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Narzullayeva Munisa

Ilmiy rahbar: dots. T.Almamatov.

Taqrizchi: f.f.n.Sh.Haydarov

**BMI O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH
USLUBIYATI** kafedrası yig‘ilishining qarori bilan (Qaror №10.
7.05.2012). Himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri _____ p.f.n. Q.Yadgarov.
(imzo)

Jizzax-2012

**MAVZU: ONA TILI DARSLARIDA IBORALAR VA
TASVIRIY VOSITALARDAN FOYDALANISH**

R E J A:

Kirish

1. Shaxs otlari bilan bog‘liq bo‘lgan iboralar va tasviriy ifodalarni o‘tish

2. Narsa otlari bilan bog‘liq bo‘lgan iboralar va tasviriy ifodalarni o‘tish.

3. O‘rin-joy otlari bilan bog‘liq bo‘lgan iboralar va tasviriy ifodalarni o‘tish.

Xulosa

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Eng avvalo til o‘zining ijtimoiy mohiyatida ko‘zga tashlanadi. Til vositasida, aniqrog‘i milliy tilning ravnaq darajasi boyligi rang - barangligi, imkoniyatlari orqali millatning tafakkur darajasi, millat fikrining miqyoslari aniqlanadi, uning ijtimoiy faollik belgilari ma’naviy salohiyatida namoyon bo‘ladi. Shu bois til- millatning ruhini ifoda etadi, til millatning tiriklik belgisidir.

Prezidentimiz I.A.Karimov o‘zining “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” asarida ham tilimizga tilimizning milliyligiga e’tibor berib shunday deydi, “Xalqimizdagi iligi to‘q, baquvvat degan tushunchani men hatto qonuniyat degan bo‘lar edim, bu bejiz paydo bo‘lmagan. Yana tilimizda “tagli-tugli”, “palagi toza” degan iboralar ham bor. Bu bir-joyda muqim yashagan, o‘z turmush tarziga ega bo‘lgan xonadonlarga nisbatan aytiladi”.

“Tilimizning milliyligini, berijimligini ta’minlovchi vositalardan biri iboralar bo‘lib voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko‘z o‘ngida aniq va to‘la gavdalantirishda iboralarning o‘rni ahamiyati beqiyosdir. Iboralar umuman olganda hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat holatlarni baholash turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalaridir”¹.

Shuning uchun ham iboralar, tilshunos A. Mamatov ta’kidlaganidek “u yoki bu xalqning, yashayotgan joyining tabiati, iqtisodiy tizimi, tarixi, madaniyati, hayot tarzi, og‘zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san’ati, fani urf-odati, dini kabilar bilan bog‘lanadi”.

¹ M.Yo‘ldoshov: “Cho‘lponning xalq iboralaridan foydalanish mahorati”, “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali 1999 yil 6-son 59-bet

Ona tili darslarida xususan iboralarni o'tish va ularni nutq jarayonida qo'llash uzviylashtirilgan ta'lim dasturida ham o'z ifodasini topgan ya'ni dars tuzulishi mavzularni detallashtirilgan holda o'quvchilarga yetkazish o'z ifodasini topgan.

Yuqorida ta'kidlaganidek iboralar xalqning barqarorligi o'ziga xos, turmush tarziga egalik belgisi hisoblanadi.

Xuddi shuningdek tasviriy vositalar ham xalq yaratgan ifodalardir. Ular (iboralar va tasviriy ifodalar) ni o'quvchilar ongiga yatkazdirish, singdirish o'z nutqlarida qo'llay olish darajasiga yetkazdirish, ona tili, darslari va o'qituvchilarining zimmasidagi buyuk vazifa sanaladi. Ayni paytda bu mavzuning dolzarbligi hamdir.

Mavzu bo'yicha e'lon qilingan ilmiy metodik ishlar va bitiruv malakaviy ishi tahlili. Iboralar va tasviriy ifodalarni ona tili darslarida qo'llash o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan. Bu borada ko'plab, ilmiy maqolalar e'lon qilingan. O'quvchilarning ijodiy tafakkuri va nutqini oshirishda iboralarni nutqda qo'llay olishning ahamiyati katta. Iboralar ustida ishlash 5-sinfda boshlanadi. Bu mavzu bo'yicha materiallarga qo'shimcha tarzda mashq va topshiriqlardan foydalanish mumkin. E'tibor Muhammedovanning "Iboralar yuzasidan mashq va topshiriqlar" maqolasida iboralar mavzusiga oid qo'shimcha topshiriqlar berilgan. Iboralar bilan bog'liq mashq va topshiriqlarni nafaqat 5-sinfda balki boshqa sinflarda ot, sifat, olmosh, fe'l kabi so'z turkumlari ustida ishlashda ham foydalanish mumkin. Bunday mashqlar o'quvchilarni izlanishga undaydi, darsga qiziqishini oshiradi va lug'atlar bilan mustaqil ishlashga odatlantiradi. Bu maqolada o'quvchilarga qiziqarli bo'lgan mashqlar ularning bilimlarini mustahkamlaydigan mashq va topshiriqlar berilgan.

Bu topshiriqlardan nafaqat 5- sinfda balki 6-sinfda o‘tiladigan turdosh otlar mavzusida ham samarali foydalanish mumkin. Biz bituruv malakaviy ishini yozish jarayonida maqolada keltirilgan topshiriqlardan unumli foydalanishga harakat qildik.

O‘quv tarbiya jarayonida o‘qitishning ilg‘or usullari, ya’ni yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish vazifasi qo‘yilgan. Biz bituruv malakaviy ishini yozish jarayonida iboralar bilan birgalikda tasviriy ifodalardan ham ona tili darslarini o‘tish jarayonida foydalanishga harakat qildik. Bu borada Muqaddas Toshturdiyevaning “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida e’lon qilingan “5-sinf o‘quvchilariga tasviriy ifodalash vositalarini o‘rgatish tajribasidan” deb nomlangan maqolasidan keng foydalandik. Maqola 5-sinf darsligidagi tasviriy vositalar mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib unda o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash, dars jarayoniga qiziqishini oshirish maqsadida turli o‘yin topshiriqlardan foydalanilgan. Bu topshiriqlar o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini shakllantirishga tasviriy vositalar mavzusini yaxshi o‘zlashtirishlariga qaratilgan.

Biz bituruv malakaviy ishini yozish jarayonida Shavkat Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” kitobidan ham foydalandik.

Bu kitobda nutqimizda keng qo‘llaniladigan umumxalq iboralari, ularning umumtil variantlari keltirilgan. Nutqda oz uchraydigan (passiv) ibora faol (aktiv) iboralar bilan sinonimik antonimik munosabatda bo‘lsa, yaqin ma’noli bo‘lsa, shaklan o‘xshash bo‘lsagina qamrab olingan. Kitobda keltirilgan iboralarni dars jarayonida qo‘llashga harakat qildik.

Iboralar mavzusida ko‘plab izlanishlar olib borilgan. Shulardan biri M.Hamzaqulovanning “O‘quvchilar nutqini o‘stirishda frazemalarning ahamiyati” deb nomlangan bituruv malakaviy ishini misol qilishimiz

mumkin. Unda asosiy e'tibor iboralar o'quvchilarning nutqini o'stiruvchi asosiy vositalardan biri ekanligiga qaratilgan. Bu ishning yana bir ahamiyatli tomoni unda asosiy e'tibor tilimizda kam qo'llaniladigan nofaol iboralarni o'quvchilar nutqiga olib kirishga harakat qilingan. Bu o'quvchilar nutqini so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad-vazifalari. Bitiruv malakaviy ishimizning asosiy maqsadi o'quvchilar nutqida iboralar va tasviriy vositalardan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish, ona tili darslarida iboralar va tasviriy vositalarni boshqa mavzular bilan birgalikda o'tish metodlarini ishlab chiqish va tavsiya qilish.

Bitiruv malakaviy ishining turdosh otlar mavzusi bilan birgalikda ibora va tasviriy ifodalarni o'tishga doir ko'rgazmali qurollar tavsiya qilishdan iborat masalan: tasviriy vositalar aks etgan suratlar, testlar, o'yin, topshiriqlarni qanday bajarish yo'llari, hamda ushbu ko'rgazmali qurollar va o'yin topshiriqlarni asoslash, ularni izohlash ishimizning asosiy vazifalaridan sanaladi.

Ona tili darslariga iboralar va tasviriy vositalarni olib kirishning vasifasi o'quvchilar maktab darsliklaridan tashqari mustaqil tarzda badiiy asarlar o'qiydilar, tabiiyki badiiy asarlarda qahramon nutqini jozibali qilish, ta'sir kuchini yanada oshirish maqsadida iboralar va tasviriy ifodalardan unumli foydalaniladi. O'quvchilar asarni o'qish jarayonida ibora va tasviriy ifodalarning ma'nolarini anglagan holda o'zlariga xulosa chiqarishlarini ta'minlash bitiruv malakaviy ishining vazifasi sanaladi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida iboralar va tasviriy vositalarni qo'llash orqali o'quvchilar nutqini oshirishga doir bo'lgan bir qator masalalar tahlil qilinadi. Iboralarning

nutq jarayonidagi oʻrni, ahamiyati kabi masalalar atroflicha yoritildi. Tasviriy vositalarning yuzaga kelish asoslari, ularni nutq jarayonida qoʻllash tasviriy vositalarning taraqqiyoti masalalari tahlil qilindi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob va qisqacha xulosadan iborat. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi ilmiy va ilmiy metodik adabiyotlar tahlili, ishning naqsad vazifalari, amaliy ahamiyati bayon qilingan. Asosiy boblari iboralar va tasviriy vositalarni 6 – sinfda turdosh otlar mavzusiga bogʻlab oʻrganish metodlari ishlab chiqildi.

Xulosa qismida bitiruv malakaviy ishi yuzasidan tavsiya qilingan metod va usullarning qisqacha bayoni berildi.

Bitiruv malakaviy ishi oʻrta maktab oʻqituvchilari, oʻzbek tili va adabiyoti fakulteti bitiruvchilari, metodika bilan qiziqqan mutaxassislariga moʻljallanadi uning amaliy ahamiyati ham shundan iborat.

1) Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, ahamiyati va shu mavzuga aloqador boʻlgan ilmiy metodik maqolalar tahliliga eʼtibor qaratilgan va qisqacha maʼlumot berilgan.

2) Birinchi bob, “shaxs otlari bilan bogʻliq iboralar va tasviriy vositalarni oʻtish” boʻlib shaxs otlarini oʻtish jarayonida iboralar va tasviriy vositalarni qoʻllash oʻquvchilarga maʼlumot berish bilan birgalikda mavzuga doir mashqlarni oʻtish jarayonida oʻyin topshiriqlar ishlab chiqildi.

3) Shaxs otlarini oʻtish jarayonida shu otlarning ikvivalenti boʻlgan iboralar va tasviriy vositalarni qoʻllashni tavsiya qildik bu oʻquvchilarning shaxs oti bilan birgalikda iboralar va tasviriy vositalar haqidagi bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi va darsni qiziqarli oʻtishini taʼminlaydi.

4) Ikkinchi bob „Narsa otlari bilan bogʻliq iboralar va tasviriy ifodalarni oʻtish” deb nomlangan. Ushbu bobimizda narsa otlari bilan bogʻliq ibora

va tasviriy ifodalarga e'tibor qaratilgan. Narsa otlariga misol bo'lgan iboralar va tasviriy vositalarni o'quvchilarga o'tish, tushuntirish uchun turli xil o'yin topshiriq va mashqlardan foydalanildi. Mavzuni bunday usulda o'tish o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi, nutqning rang – barangligini ta'minlaydi. Bir so'z bilan aytganda o'quvchining nutq madaniyati takomillashib boradi. Bu borada zaruriy namuna va tavsiyalar berildi.

5) Uchinchi bob, "O'rin joy otlari bilan bog'liq bo'lgan iboralar va tasviriy vositalarni o'tish" bo'lib bu bobda asosiy e'tibor o'rin – joy otlari bilan bog'liq tasviriy ifodalarni o'tishga qaratilgan. O'quvchilar uchun qiziq bo'lgan musobaqa tarzda tashkil etilgan dars turli o'yin – topshiriqlar, mashqlar va test savollari shaklida tashkil etildi.

6) Bu topshiriqlarni bajarish usullari ko'rsatildi va qator namunalar berildi. O'quvchilar guruhlariga bo'linib musobaqalashadilar va o'rin – joy otlari bilan bog'liq tasviriy vositalarni ham mukammal o'rganib oladilar.

7) Bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida turdosh otlar mavzusiga doir mashq va topshiriqlarni bajarish jarayonida pedagogik texnologiya asosida turli o'yin topshiriqlarni tavsiya qildik. Bu borada turli metodik maqolalardan mavzuga oid bo'lgan kitoblarda foydalandik. Bu o'yin topshiriq va mashqlar shu soha xodimlariga va ushbu sohaga qiziquvchilalar uchun foyda keltiradi degan umiddamiz.

BMIning hajmi. Ushbu BMImiz kirish, uch asosiy bob, xulosa va adabiyotlar (18 ta) ro'yhatidan iborat bo'lib 58 sahifani tashkil etadi.

1-BOB. SHAXS OTLARI BILAN BOG‘LIQ BO‘LGAN IBORALAR VA TASVIRIY IFODALARNI O‘TISH

Frazeologiya tilshunoslikning frazeologik birliklarini o‘rganuvchi sohasidir. Frazeologiya termini tilshunoslikda ikki ma’noda qo‘llaniladi:

1. tildagi frazeologik birliklarning jami ma’nosida va
2. shunday birliklarni o‘rganuvchi soha (fan) ma’nosida.

Ikki yoki undan ortiq so‘zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma’no ifodalaydigan til birligi frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi: qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, og‘zi qulog‘ida, yuragiga ko‘ngliga qil sig‘maydi, do‘ppisi yarimta ikki gapning birida, sirkasi suv ko‘tarmaydi kabilar.

Demak, leksikologiya tilning lug‘at sostavini (leksikasini) frazeologiya esa frazeologik birliklar sostavini o‘rganadi. Lug‘at sostavida til birligi so‘z bo‘lsa, frazeologiya sostavida frazeologizm til birligidir.

Tilning lug‘at boyligi leksikasi va frazeologiyadan iboratdir. So‘z ham, frazeologizm ham lug‘aviy birliklar hisoblanadi.

Frazeologizmlar birdan ortiq so‘zdan tashkil topishi bilan so‘z birikmasi yoki gap tipida bo‘lsa-da, lekin ular nutq birligi bo‘lgan bu birliklardan tamoman farqlanadi, va lug‘aviy birlik sifatida ko‘p jihatdan so‘zlarga yaqin turadi, so‘zlarga xos bo‘lgan juda ko‘p xususiyatlar frazeologizmlarga ham xosdir.

Frazeologizmlar so‘z birikmasi yoki gaplar kabi nutq jarayonida hosil bo‘lmaydi, balki ular xuddi so‘zlar kabi tilda tayyor holda mavjud bo‘ladi. Demak, frazeologizmlar til hodisasi hisoblanadi: aravani, quruq olib qochmoq, kovushini to‘g‘rilab qo‘ymoq, sichqonning ini ming tanga, tomdan tarasha tushganday, nog‘orasiga o‘ynamoq, kapalagi uchib ketdi kabilar tilda tayyor holdagi lug‘aviy birliklardir.

Frazeologizmlar ham xuddi soʻzlar kabi shakl va maʼno butunligiga ega. Soʻzning shakliy tomonini tovushlar hosil etsa frazeologizmlar shakliy tomonini soʻzlar hosil etadi: yoqlamoq-yon bosmoq, rahmdil-koʻngli boʻsh kabi.

Fazeologik maʼno. Tilda ham shakl va maʼno bor. Tilda shakl deb odatda tilning materiyasi-tovush koʻzda tutiladi. Buni tilning ifoda plani deb yuritiladi. Ular (tovushlar) birikib tilning asosiy birliklaridan boʻlgan soʻzni hosil qiladi. Soʻz anglatgan maʼno til birligining mazmun plani deb yuritiladi. Bunday maʼno tilda (til bosqichida) berkitilgan boʻladi; nutq shuni qalqitib beradi.

Maʼlum shaklga maʼlum bir maʼnoning berkitilishi affekslarga ham xos. Masalan: boradi soʻzi tarkibidagi affeksiga 3-shaxs maʼnosi, -a affeksiga “hozirgi-kelasi zamon” maʼnosi berkitilgan. Bunday affekslarning maʼnosiga grammatik maʼno deyiladi.

Iboralar ham ifoda planiga va mazmun planiga ega. Sodda morfemada uning ifoda plani deb tovush tizimi koʻrsatilsa, murakkab (qoʻshma) morfemada uni tashkil toptirgan morfemalar koʻzda tutiladi. (-chi-lik—chi-+lik kabi). Shuningdek, tub leksemada uning tarkibidagi leksema va morfemalar koʻzda tutiladi. Ibora ham tarkibli til birligi, lekin uning maʼnosi tarkibidagi leksemalarga xos maʼnolarining oddiy yigʻindisiga teng boʻlmaydi. Iboraga xos maʼno tarkibidagi leksemalarning maʼnosiga nisbatan mahraj maʼno, ustama maʼno sifatida gavdalanadi, bu maʼno ibora tarkibidagi leksemalarning maʼnosiga suyanmasligi ham mumkin: iboraning maʼnosi tarkibidagi leksemalarga xos maʼnolarning oddiy yigʻindisi boʻlmasligi shular ustiga qurilgan yangi bir maʼno boʻlishi sababli, iboralarda goʻyo ifoda plani bilan mazmun plani orasida qandaydir uzilish sodir boʻladi. Xususiy (qismlarga xos) maʼnolar umumiy (iboradan anglashiladigan) maʼnoni

to'g'ridan-to'g'ri izohlab turmaydi, shu sababli iboralarda ifoda plani bilan mazmun plani orasidagi bog'lanish shartlilik kashf etadi. Bu (shartlilik) yerda bittadan ortiq so'z yahlitligicha ma'lum bir obraz asosida ko'chirish yo'li bilan simantik taraqqiyotni boshdab kechiradi. Ma'lum obraz asosida yuzaga kelgan ana shunday ustama ko'chma ma'noga frazeologik ma'no deyiladi. Masalan: til tekkizmoq iborasi "sha'niga nomunosib, nohaq gap aytmoq" ma'nosini anglatadi. Bu ma'no to'g'ridan-to'g'ri ibora tarkibidagi leksemalarning ma'nosidan kelib chiqmaydi. Masalan: batareyaga til tekkizsam, hech toki yo'q ekan gapida erkin birikma ishlatilgan bunday ishlatishda til va tekkizmoq so'zlari ma'no mustaqilligini saqlab bog'lanadi, ma'noda tahlitlanish yuz bermaydi. Kechagi majlisda menga ham til tekkizibdi gapi tarkibida yuqoridagi erkin birikma emas balki, til tekkizmoq iborasidan foydanilgan. Aytilganlardan ma'lumki, frazeologik iboralardan anglashilgan ma'no nutq sharoitiga mos holda qo'llanilsa, nutqning ta'sir kuchini oshiradi, shu bilan birga uning ifodaliligini oshiradi. Ona tili darslarida buning ahamiyati katta.

Frazeologik polisemiya. Bittadan ortiq ma'noni anglatish olish til birliklariga xos xususiyat bo'lib, u iboralarning ham talay qismida uchraydi. Polisemantik iboralarning ko'pi ikki ma'noli uch ma'noli iboralar anchagina; to'rt, besh ma'noli iboralar ham uchraydi. Masalan: bosh (i)ga qilich kelsa ham (har qanday sharoitda ham) iborasi bitta ma'noni, aqli yetadi (1. idrok qilmoq uqimoq, bilmoq, 2. ishonch hosil qilmoq) iborasi ikkita ma'noni, bo'yniga qo'yimoq iborasi uch ma'noni 1. ("ayb"ni). To'nkamoq, ag'darmoq. 2. ("ayb"ni). To'nkamoq, ag'darmoq. Isbotlab, e'tifof qildirmoq. 3. (biror ishni bajarishga rozi qilmoq) anglatadi. Misollardan ko'rinib turibdiki iboralardagi ko'p ma'nolilik nutqning o'ta nozik ifodasi imkoniyatini yaratadi.

Frazeologik senonimiya. Senonimlik til birliklari orasidagi semantik mikro sistemalardan biri bo‘lib, iboralar orasida ham anchagina. Ikki iborani senonim deyish uchun ular ayni bir ma‘noni anglatishi shart. Bu siz senonimiya haqida gapirib bo‘lmaydi. Ayni bir ma‘nolilikni teng ma‘nolilik deb tushunish yaramaydi. Har bir senonim, shu senonimiya uyasi uchun umumiy ma‘no o‘zanidan tashqari, o‘ziga xos ma‘no qirrasiga ega bo‘ladi.

Senonimlar odatda bir yoki bir necha jihatdan farqqa ega bo‘ladi. Shulardan biri ma‘no qirrasidagi farq bo‘lishi mumkin. Masalan: yer bilan yakson bo‘lmoq- yer bilan yakson qilmoq iborasi kulini ko‘kka sovirmoq- kuli ko‘kka sovirildi iborasiga senonim: ayni bir ma‘noni anglatadi. (“butunlay yemirmoq, yo‘q qilmoq”) Bu senonimlar boshqa belgi-xususiyatlardan qat’iy nazar ma‘no qirrasida farq qiladi: ikkinchisida ma‘no bir qadar kuchli Frazeologik senonimlarni belgilashda ular asosida boshqa- boshqa obrazning yotishi ham hisobga olinadi. Masalan: bir og‘iz, bir shingil, bir chimdim senonim iboralari asosida har xil obrazlar yotadi; bir bosh uzumning qismi; chimdim olinadigan miqdor.

Frazeologik antonimiya. Antonimiya til birliklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo‘lib, iboralarda ham so‘zlardagi darajada uchraydi. Anotomiyani belgilash, bir tomondan chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchidan polisemiya bir iboraning ma‘nolarini o‘zaro farqlashga yordamlashadi uchinchidan, senonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi.

Barcha leksik komponentlari boshqa-boshqa so‘zlar bilan ifodalangan iboralar orasidagi antonimiyani belgilash oson: savol bermoq va javob qaytarmoq; yerga urmoq va ko‘kka ko‘tarmoq kabi. Birinchi antonimlar tarkibidagi har bir so‘z komponentlar ikkinchi antonimlar tarkibidagi har bir so‘z-komponentlari o‘zaro antonim. Quyidagi antonim

iboralar tarkibida qatnashgan leksik komponentlar- ayni bir soʻzning oʻzi, ikkinchi leksik komponentlar esa antonim soʻzlar: yurag(i) keng va yurag(i) tor. Boshqa bir misol: koʻngil(i) joyiga tushdi va yurag(i)ga gʻulgʻula tushdi. Bu antonim iboralar tarkibidagi leksik, komponentlarning uchinchi ayni bir soʻz, birinchisi oʻzaro sinonim, ikkinchisi esa oʻzaro maʼno munosabatini hosil qilmaydi. Koʻrinadiki, antonim iboralar tarkibidagi antonim soʻz-komponentlari qatnashavermaydi. Antonimiya iboradan yaxlitligicha anglashiladigan lugʻgʻaviy maʼno asosida belgilanadi. Antonimik iboralardagi ana shunday maʼno nozikliklarini anglash oʻquvchi tafakkuri rivojida hal qiluvchi rol oʻynaydi. Oʻqituvchi bunday holatlarga diqqatini qaratmogʻi lozim.

Frazeologik omoniya. Til birliklari orasida shaklan teng kelish hodisasi omoniya-frazeologik birliklarda ham mavjud. Frazeologik omoniya odatda ikki ibora orasida voqe boʻladi: qoʻl koʻtarmoq I va qoʻl koʻtarmoq II kabi. Bu yerda omoniya ibora bilan ibora orasida voqe boʻladi, keltirilgan iboralar barcha muqobil shakllarda teng keladi: qoʻl koʻtardim qoʻl koʻtaradi kabi. Shunga koʻra bu ikki iborani omonimlar deyish mumkin.

Omonik munosabatdagi iboralarning leksik tarkibi ikki xil boʻladi:

1. Har ikki ibora tarkibidagi bir komponent esa ayni bir soʻzning oʻzi boʻlad. Masalan: oʻng kelmoq I va oʻng kelmoq II iboralari tarkibidagi feʼl komponentlari ayni bir soʻz bilan, ism komponentlar esa omonim soʻzlar bilan ifodalangan: birinchi ibora tarkibidagi ters sifatining antonimi, ikkinchi ibora tarkibida esa tush otining antonimi qatnashgan.

2. Har ikki ibora tarkibidagi barcha komponentlar ayni shu soʻzlarning oʻzi boʻladi. Bunda ikki holat bor:

a. Ibora tarkibidagi soʻzlar har xil leksik maʼnosi bilan qatnashadi. Masalan: dam bermoq I va dam bermoq II iboralari tarkibida feʼl

komponentlari ayni bir leksik ma'nosi bilan, ot komponentlar esa boshqa- boshqa leksik ma'nosi bilan qatnashgan. (dam 1 –“havo”, “yel”; dam 2- “istirohat”)

b. Iboralar tarkibidagi soʻzlar ayni bir leksik ma'nosi bilan qatnashadi. Bunday omonimiyani izohlashda soʻz komponentlarga suyanib boʻlmaydi, iboralar asosida yotgan voqelikka, shu voqelikdan olingan obrazga suyaniladi. Masalan: ichag (i) uzildi I va ichag (i) uzildi II iboralari tarkibidagi soʻz komponentlar ayni bir leksik ma'nosi bilan qatnashgan, ammo bu iboralar asosida boshqa-boshqa obraz yotadi: birinchi iborada qattiq va uzluksiz kulganda ichaklar silkina-silkina uzilib ketgudek boʻlishidan, ikkinchi iborada esa uzoq muddat ovqatlanmaslik natijasida ichaklarning torayib, ingichkalashib, uzilish darajasiga yetishidan obraz olingan.

Iboralarning turlari

Frazemalar ikki turga boʻlib oʻrganiladi:

- 1.frazeologik butunlik;
- 2.frazeologik chatishma;

I. Ma'nosi tarkibidagi soʻzlarning ma'nolari asosida izohlanib, umumlashgan koʻchma ma'no ifodalaydigan frazemalarga frazeologik butunliklar deyiladi. Masalan: 1.Bilib qoʻying. Ish ogʻir. Belni mahkam bogʻlamasangiz, qiyin boʻladi (O.Yoqubov). 2.Ayol kishiga qoʻl koʻtarish erkakning ishi emas. (R.Fayziy). 3.Bu maydon yogʻ tushsa yalagudek ozoda...(A.Muxtor).

II. Ma'nosi tarkibidagi soʻzlarning leksik ma'nolari bilan bogʻlanmaydigan, ular asosida izohlanmaydigan frazemalarga frazeologik chatishmalar deyiladi. Masalan; 1.Qishki sessiyani yaxshi yakunladik, ammo bu hali-xamir uchidan patir (P.Qodirov). 2.Odamlar qoʻltigʻdan tarvuzlari tushib, qishloqqa qaytishdi. (M.Ismoilij). 3.Butun gavdasi qizlik

latofati bilan yashnagan chogʻda boyvachcha uni koʻz tagiga olib qoʻygan edi. (Oybek).

Frazeologizmlarning eng asosiy belgilari sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

1. Frazemaning tarkibida ikki yoki undan ortiq leksema qatnashgan boʻladi.

2. Frazema yahlit bir lugʻaviy maʼnoni ifodalaydi.

3. Frazemaning tarkibidagi soʻzlar oʻz leksik maʼnolarini yoʻqotgan boʻladi.

4. Frazema turgʻun birikma sifatida erkin birikma bilan faqat omonimik holatda boʻladi.

5. Frazemani faqat yahlitligicha almashtirish mumkin.

6. Frazema gapning tarkibida yahlitligicha bir sintaktik vazifada keladi.

7. Frazemani boshqa tilga soʻzma soʻz tarjima qilib boʻlmaydi, yahlitligicha tarjima qilinadi.

Yuqorida taʼkidlangandek, iboralar til hodisasi sanaladi. Bu haqidagi dastlabki maʼlumotni oʻquvchilar 5-sinfda olganlar va ularning oʻziga xos tomonlarini yaxshi biladilar.

Maʼlumki, iboralar nutqni bezovchi taʼsirchanligini oshiruvchi, nutqning rang-barangligini taʼminlovchi vosita sanaladi. Bizning maqsadimiz iboralarning grammatik xususiyatlarini, yaʼni ot turkumi tarkibida qoʻllanilgan iboralarning xususiyatlarini tahlil etishdir.

Otlar anglatgan maʼnolariga koʻra atoqli va turdosh otlarga ajratiladi. Biz bu oʻrinda turdosh otlar va ularning turlari tarkibida qoʻllash mumkin boʻlgan iboralarni tahlil qilamiz.

6-sinf darsligida turdosh otlar uchun 9 soat ajratilgan boʻlib ular quyidagicha taqsimlanadi:

- Turdosh otlar 1soat
- Shaxs otlari 1soat
- Shaxs oti yasovchi qo‘shimchalar va ularning imlosi 1soat
- Narsa otlari 1soat
- Narsa otlarini yasovchi qo‘shimchalar va ularning imlosi 1soat
- O‘rin-joy otlari 1soat
- Faoliyat-jarayon nomini bildiruvchi otlar 1soat.
- Aniq va mavhum otlar 1soat.
- Mavhum ot yasovchi qo‘shimchalar va ularning imlosi 1soat.

Bizning tekshirish ob’yektimiz turdosh otlar bo‘lganligi sababli turdosh otlar uchun berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida iboralarni ham qo‘llash imkoniyati tug‘iladi.

1- Topshiriq. Topshiriq shartiga ko‘ra, bir necha turdosh otlar berilgan. Ularni shaxs otlari, narsa otlari, o‘rin-joy otlari kabi guruhlariga ajratish topshirilgan.

Biz o‘quvchilarga shu turdosh otlar bilan birgalikda, qo‘shimcha topshiriq sifatida iboralar va tasviriy vositalarni topishni buyuramiz.

Namuna

| Shaxs otlari | Narsa otlari | O‘rin-joy otlari |
|---|--|---|
| hafsalasi pir bo‘ldi ko‘zi ko‘ziga tushdi ilonning yog‘ini yalagan istarasi sovuq ko‘ziga sovuq ko‘rinmoq ko‘zi moshdek ochildi tili bir qarich | gap tegdi dabdalasini chiqarmoq dong qotmoq dumi xurjunda kalavaning uchini topmoq ko‘rpasiga qarab oyoq uzatmoq mazasi ketdi | tomdan tarasha tushganday gapni bir joyga qo‘ymoq payiga tushdi to‘ydan ilgari nog‘ora qoqmoq Osmonga chiqsa oyog‘idan, yerga kirs qulog‘idan tortmoq |

Turdosh otlar tarkibida keluvchi iboralar haqida o‘quvchilarda umumiy tasavvur hosil qilingach, uning turlarida qo‘llanish mumkin bo‘lgan iboralar tahliliga to‘xtaymiz. Chunonchi turdosh otlarning ma’no turlaridan biri shaxs otlari va ular tarkibidagi tasviriy vositalarni o‘tish. Buning uchun quyidagi topshiriqni bajaramiz:

| Shaxs otlari | Narsa otlari | O‘rin-joy otlari |
|----------------------|---------------------|-------------------------|
| janobi oliylari | oq oltin | |
| kaminayi kamtarin | dala malikasi | Buxoroyi Sharif |
| buyuk hakim | bilim bulog‘i | Shahri azim dong‘i |
| davlat ustunlari | dengiz hokimi | dog‘istonga ketdi. |
| ziyolilar | kumush choyshab | Qo‘shiqar mamlakati. |
| charm qo‘lqop ustasi | hayvonlar podshosi | Kunchiqar mamlakat |
| binokor | po‘lat ot | Yashil qit‘a |
| bog‘cha opa | qanotli ot | Non shahri |
| ilm zahmatkashlari | yerning yopinchig‘i | |
| | baxt qushi | |

Topshiriq. Berilgan so‘zlarning so‘rog‘ini aniqlang va qanday ma’no ifodalashini ayting.

Topshiriq bir o‘quvchiga o‘qitiladi.

Chol, yigit, kampir, qiz, shaharlik;

Yuqorida keltirilgan ushbu so‘zlarga so‘roq berib qanday ma’no ifodalashi so‘raladi?

Chol- kim so‘rog‘iga javob bo‘lib insonning keksayib qolgan, mo‘ysafid bo‘lgan holati anglashiladi.

Yigit- kim so‘rog‘iga javob bo‘lib insonning eng kuch-g‘ayrat, shijoatga to‘lgan payti.

Kampir- kim so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Biz ushbu topshiriq yuzasidan shaxs otlarini bildiruvchi iboralarni qo‘llashimiz mumkin. Bu orqali o‘quvchilarning so‘z boyligi oshadi. Masalan: Soxtasi sovuq- (yoqimsiz, badhazm) qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan- (nihoyat darajada beozor, mo‘min) kim so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Shaxs otlari kim? so‘rog‘iga javob bo‘lib, shaxslarni yoshiga, yashash joyiga, mansab unvoniga, kasb-koriga, ijtimoiy holatiga, qarindoshlik darajasiga, nasl-nasabiga ko‘ra nomlab keladi.

O‘quvchilardan bunday tushunchani yanada mustahkamlash maqsadida mustahkamlash mashqlarini bajaramiz. Gaplarni ko‘chirib shaxs otlarini topishni buyuramiz.

Birinchi gapni bir o‘quvchiga o‘qitamiz.

Bittasi Toshkentlik Yusufbek hojining o‘g‘li Otabek!

Bu gapda Yusufbek hoji bilan Otabek shaxs otlari hisoblanadi va kim so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Ushbu mashq shartiga ko‘ra biz iboralar va tasviriy vositalardan foydalanib shaxs otlariga misollar keltiramiz.

Namuna

1. Hafsalasi pir bo‘lganlar chidab turolmadi.

Bu gapimizda “hafsalasi pir bo‘lgan” shaxs oti vazifasini bildirib keladi.

2. Kaminayi kamtarin hech narsadan xabarim yo‘q!

Bu gapimizda kaminayi kamtarin shaxs oti kim so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

3. Janobi oliylariga bunday xushomadgo‘ylik yoqmaydi. Kim so‘rog‘i beriladi. Janobi oliylari shaxs oti bo‘lib kelgan.

O‘quvchilar shaxs oti bilan iboralarni topib bo‘lganlaridan so‘ng mavzuni yanada mustahkamlash maqsadida keyingi mashqni bajarishni buyurtiramiz.

293-mashq. Mashq shartiga ko‘ra shaxs otlarini aniqlab, ularga izoh berish kerak.

Biz ushbu matnda iboralarni ham keltiramiz. Iboralar o‘quchilarning so‘z boyligini oshirishga xizmat qiladi hamda nutqning ta’sirchanligini oshiradi.

Namuna

Kampir uning boshini silab, peshonasini yuziga bosib sekin dedi:

-Qayoqlarda yurgan eding , ko‘zimning oqu qorasi? Kozim ochiq paytlarda qayoqlarda eding, nuri deydami?

Kampir uni bag‘ridan bo‘shatib hovli tomonga ovoz berdi:

-Nima qilib turibsanlar ayangni chaqirmaysanlarni? Oyog‘ingni qo‘lingga ol pochchangga chop, tog‘am keldi, deb ayt.

Bir hovli bola dupur-dupur qilib to‘rt tarafga yugurib ketdi.

(Said Ahmad)

Ushbu matnda 4 ta ibora qo‘llanilgan. Ularni o‘quvchilar aniqlab izohlashadi.

1. Ko‘zining oq-u qorasi- (yagona, yakka farzandlarga nisbatan ishlatiladi) yakka-yu yagona va qadr qiymati beqiyos yuksak
2. Ko‘zi ochiq- yaxshini yomondan (farqini) foydani zarardan farqlashga qobiliyatli.
3. Oyog‘ini qo‘lga olmoq-tez shoshilinch tarzda bormoq .
4. Xabar bermoq- xabardor qilib qo‘ymoq.

Iboralar nutqni rang-barang qiladi keltirilgan misollarni iborasiz holida qo‘llab ma’nosidagi farqlarni izohlaymiz. Masalan: Kampir uning boshini silab, peshonasini yuziga bosib sekin dedi:

-Qayoqlarda yurgan eding, bolaginam? Ko‘zim ko‘radigan paytlarida qayoqlarda eding, o‘g‘lim?

Ushbu gaplarda onaizorning butub armon istiroblarini iboralar orqali o‘quvchiga yetkazib berishga harakat qildik.

“Ko‘zimning oq-u qorasi” iborasini “bolaginam” so‘ziga almashtirsak bunda ta’sirchanlik yo‘qoladi. “Ko‘zning oq-u qorasi” iborasi yakka-yu yolg‘iz Ollohdan tilab olingan farzndlarga nisbatan ishlatiladi. Demak, “bolaligim” yoki “bolam” so‘zlari ushbu ibora anglatgan ma’no nozikligini va ta’sirchanlikni, onaning mehr-muhabbatini ochib bera olmaydi: Iboralar gap yoki matn tarkibida kelar ekan ular qahramonning ichki kechinmalarini to‘laligicha namoyon qilish bilan birgalikda ixchamlikni; soddalikni; bo‘yoqdorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda so‘zlarni iqtisod qilishga yordam beradi. Bir iboralarning vazifasini ma’nolarini gap yoki matn tarkibida qatnashtirish orqali, o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, iboralarni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llay olish malakasini shakllantirishdan iborat.

Dars davomida turli o‘yin topshiriqlardan foydalanishimiz ham mumkin. Masalan: shaxs otlari o‘rnida qo‘llaniladigan iboralarni topishni buyuramiz. Bunda o‘quvchilar uch guruhga bo‘linib kim ko‘p shaxs otlariga misol bo‘lgan iboralarni sinf taxtasiga yozadilar.

Namuna

| 1-guruh | 2-guruh | 3-guruh |
|---------------------|-----------------|------------------|
| -tilidab bol tomadi | -istarasi issiq | -og‘zi bo‘sh |
| -og‘zi bo‘sh | -tili zahar | -qo‘li kalta |
| -ichi qora | -tirqi sovuq | -dimog‘i chog‘ |
| | -qalbi toza | -zuvalasi pishiq |

Ushbu topshiriq o‘quvchilarning iboralarni qanchalik yaxshi bilishlarini sinab ko‘rishdan iborat. Iboralar nutqning ta’sirchanligi va rang-

barangligini ta'minlaydi. Shaxs otlariga ko'p iboralar topa olgan va ushbu iboralarni izohlab, tushuntirib bergan guruh o'quvchilari g'olib deb topiladi va rag'batlantiriladi.

Uyga vazifa qilib shaxs oti bilan bog'liq bo'lgan iboralar va tasviriy vositalar topib kelish buyuriladi.

Namuna

1. Orqasidan tushmoq- qayerga borsa, zimdan ta'qib qilib bormoq
2. Tarvuzi qo'ltig'idan tushdi- umidi puchga chiqib, bo'shashmoq.
3. Tekkanga tegib tegmaganga kesak otmoq- tegajaklik qilib, hech kimga tinchlik bermaslik.
4. Tepsa tebranmas- har qanday ishni ham imillab qiladigan sustkash.
5. Chumchuq "pir" etsa yuragi "shir" etadi- o'taketgan qo'rqqoq.
6. Qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarmoq- yaxshilik qilaman degan holda yomonlik qilib qo'ymoq.

Shaxs otiga misol bo'lgan tasviriy vositalar.

1. Afgonchi- baynalmilal jangchi.
2. Baxt va shodlik kuychisi-Hamid Olimjon.
3. Fudbol quroli- Pele.
4. Ishq kuychisi- Mashrab.
5. Vatan posbonlari- askarlar.
6. G'azal mulkining sultoni- Alisher Navoiy
7. Moyqalam sohibi- rassom.
8. Salomatlik posbonlari.
9. Izquvar- tergovchi.
10. Is'tetod sohiblari- talantli kishilar.

2-bob: NARSA OTLARI BILAN BOG‘LIQ BO‘LGAN IBORALAR VA TASVIRIY IFODALARNI O‘TISH

An’anaviy ta’lim darsning besh bosqichli mezoni mavjud bo‘lib, bir xillik uslub tizimini ta’lim jarayoniga chuqur o‘rnashib olgan edi: tashkiliy qism, so‘rash (uy vazifasini tekshirish), yangi materialni tushuntirish, uni mustahkamlash, uy vazifasi.

Bu “andoza” - bir xil usul davr - zamonning taraqqiyot talablariga javob bermay qo‘ydi. An’anaviy ta’lim bu usuli o‘z zamonasida xizmat ilib vazifasini o‘tab bo‘ldi. Endilikda esa bunday usul- bir xil qolip shakl o‘quvchilarni zeriktirib qo‘ydi. Interfaol dars mazmuniga rang-baranglik shaklga turli xillik baxsh etish o‘quvchilarning dunyoqarashi va ruhiyati asosida vujudga kelib umrini o‘tab bo‘lgan bir xillilik-bir xil qolip usulining o‘rnini egallamoqda.

Texnologiya tushunchasi pedagogika fani, ishlab chiqarish sohalariga nisbatan ancha keng qo‘llanilib, “Texnologiya” so‘zi yunoncha techne – san’at, logos – ta’limot degan muzmunni anglatadi. Olimlarning ta’kidlashicha, “texnologiya” atamasi “bola shaxsiga ta’sir ko‘rsatish san’ati”-ga e’tibor qaratib, har bir davrda o‘ziga xos zamonaviylik kasb etib, yangilanib, takomilashib kelgan. “Pedagogik texnologiya” atamasini o‘qitish, ta’lim berish jarayonidagi pedagogik mahorat, yo san’at bo‘lishi mumkin. San’at ichki hissiyotga, texnologiya esa fanga asoslanadi. Shunday bo‘lsada, texnologiya lug‘aviy ma’noda mahorat tushunchasiga yaqin bo‘lib, mahorat dars o‘tishning ham, san’atning ham, fanning ham mevasidir. Mantiqshunoslar har qanday mahorat ko‘rinishida ichki hissiyot, his-hayajon sezgi mujassam bo‘ladi deb uqtiradilar.

Inson har kasb sohibi bo‘lishidan qat’iy nazar o‘z ishiga, mashg‘ulotiga qunt bilan, mehr bilan yondashsa, uning butun sir-asrorini,

usul vositalarini mukammal egallaydi, shu bilan birga oz'-o'zini anglaydi, shu sohada kamol topadi. O'qituvchi kimni o'stirsa, tarbiyalasa o'zi ham o'sadi, ulg'ayadi, donishmandlik kasb eta oladi.

Yangi pedagogik texnologiyadan kutilgan maqsad nima, uning afzalliklari, darsning samaradorligini oshirish tamoyillari nimalardan iborat degan savolga quyidagicha hosilalar asosida javob berish mumkin.

1. Yangi pedagogik texnologiya eng qulay va sodda usul.
2. Mustaqil fikrlashni o'rgatadi.
3. Ko'p tarmoqli.
4. Sodda oson.
5. Esda qolishi kuchli
6. Bilim boyligini oshiradi.
7. Vaqtdan yutamiz.
8. Qiziqarli o'tadi.
9. Darsning samaradorligini oshiradi.
10. Dunyoqarashni shakllantiradi.
11. Tafakkurni rivojlantiradi.
12. O'quvchilarning diqqat-e'tiborini tortadi.
13. Har bir o'quvchi bilan individual munosabat paydo bo'ladi.
14. Xotirani kuchaytiradi.
15. Izlanishga chorlaydi.
16. O'quvchilarni o'z ustida ishlashga da'vat etadi.

Yangi pedagogik texnologiya asosida darsni tashkil etish qadimgi Sharqona tarbiya tamoyilaridan butunlay voz kechish degan gap emas. Yangi pedagogik texnologiya g'arb ta'lim jarayoning eng ilg'or tamoyillari bo'lsada, Sharqona an'analar, pandnoma didaktik ruhida tarbiyani kuchaytirishi hamma vaqt milliy tarbiyamizning asosini tashkil etadi.

Pandnoma

1. Odamlarning yaxshiligini, o‘z yaxshiliging bilan aralashtirma.
2. Boyliging miqdorini do‘stu dushmanga bildirma.
3. Qarindoshni qarindoshdan ayirma.
4. Yaxshi odamni g‘iybat bilan yod qilma.
5. Faqat o‘zingni o‘ylama.

Dars jarayonida qisqa daqiqa to‘xtalish (pauza) saqlab - shu xildagi pandnomalarni izohlab o‘tish ham katta ahamiyatga egadir.

Bizning tadqiqot ob’ektimiz mavzusi “Ona tili darslarida iboralar va tasviriy vositalardan foydalanish” bo‘lganligi uchun turdosh otlarga doir topshiriq va mashqlarni bajarish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda iboralar va tasviriy vositalarni dars davomida qo‘llashdan iboratdir.

Uzviylashtirilgan daturda otlarni simantik guruhlari alohida-alohida o‘rganish uchun tavsiya qilingan shulardan biri narsa qurol? otlaridir.

Narsa otlari bilan bog‘liq topshiriq va mashqlarni o‘quvchilarga tushuntirish bilan birgalikda, pedagogik texnologiyalardan foydalanib shu mavzuga oid bo‘lgan iboralar va tasviriy vositalarni qo‘llashga, o‘quvchilarga tushunarli, qiziqarli qilib tashkil etishga harakat qildik.

Topshiriq shartiga o‘zgartirish kiritib nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan iboralar va tasviriy vositalarni topishni o‘quvchilarga buyuramiz.

- Puchga chiqmoq – xom hayol bo‘lib qolmoq,
- Amalga oshmoq – voqelikka aylanmoq.
- Amri mahol – qiyin,
- Anqoning tuxumi – topilishi qiyin kamyob.
- Avjga yetmoq – yuqori darajaga ko‘tarilmoq.

Yerda qolmoq – e’tiborsiz qolmoq.

Yog‘ tushsa yalagudek – nihoyat darajada toza,

Jon bor – asosga ega, zamirida haqiqat bor, bejiz emas.

Zabtiga olmoq - juda kuchayib ketmoq.

Ikki dunyoda ham – hech qachon.

Ikki og‘iz – ozgina andek, (“gap” yoki “gapirmoq”) to‘rt og‘iz,

Ilon po‘st tashlaydi – chiday olmaslik, toqat qilib tura olmaslik.

Bu topshiriqni o‘quvchilarga bajartirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad, o‘quvchilar narsa otlari bilan bog‘liq iboralarni qanchalik yaxshi biladilar. Ular orasida nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan iboralarni bilmaydigan o‘quvchilar ham bormi? Bor bo‘lsa dars davomida ularga ko‘proq e‘tibor berish ular bilan ko‘proq ishlash kerakligini qanchalik e‘tibor qaratish lozimligini bilishdan iborat.

Topshiriq bajarilgandan so‘ng o‘quvchilarning so‘z boyligini, hamda iboralar va tasviriy ifodalarni qanchalik yaxshi bilishlarini sinab ko‘rish maqsadida quyidagi o‘yin topshiriqni beramiz. Bu o‘yin “Kim chaqqon” deb nomlanib unda sinfdagi barcha o‘quvchilar ishtirok etadi. Ma’lum bir ibora va tasviriy vosita sharhlab beriladi. Shunga qarab o‘quvchilar iboralar va tasviriy ifodalar topadilar. Eng birinchi va to‘g‘ri ibora, tasviriy vositalarni topa olgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Namuna Iboralar

1. Bo‘rttirib yubormoq – pashshadan fel yasamoq,
2. Biron gapni bexosdan aytmoq – tomdan tarasha tushganday,
3. Aybsizdan ayb topmoq – qilda qiyiq axtarmoq,
4. Befoyda sarflamoq – suvga oqizmoq,
5. Ro‘yobga chiqishi aniq bo‘lmagan narsa haqida oldindan gapirib yurmoq – to‘ydan oldin nog‘ora qoqmoq.
6. Kayfiyati yomon, xafa – kayfi buzuq.
7. Yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko‘rmaydigan – yuragi toza.

8. Qurquv aralash hech narsa diyolmoy lol bo'lib qolmoq – nafasi ichiga tushib ketdi.
9. Yengil yelpi jazolamoq, urushib qo'yimoq – tanbeh bermoq.
10. Qo'rqmay botinmoq hayiqmaslik – ta tortmaslik.
11. Kayfiyati yomonlashdi – tabi xiralashdi.
12. Qilmishiga yarasha jazo olish – tazirini yemoq.

Tasviriy ifodalar

1. Bilim bulog'i – kitob.
2. Hayot ko'zgusi – gazeta.
3. Ilm o'chog'i – maktab.
4. Kumush choyshab – qor.
5. Ma'rifat maskani – kutubxona.
6. O'rmon malikasi – archa.
7. Oltin boshqoq – bug'doy.
8. Osmonning ko'z yoshlari – yomg'ir.
9. Yurt boshi – Prezident.
10. Dengiz hokimi – kit
11. Bahor elchilari – qaldirg'ochlar
12. Insonning do'sti – it.

Iboralar va tasviriy ifodalarni bunday tartibda o'rgatish orqali o'quvchilarning so'z boyligi oshadi. Nutqning rang-barangligi va jozibadorligi ta'minlanadi. Bir so'z bilan aytganda o'quvchilarning nutq madaniyati takomillashib boradi. Bu o'yin o'quvchilarni o'ylashga fikr yuritishga o'z ustilarida yanada ko'proq ishlashga undaydi, hamda darsga qiziqishlarini yanada oshiradi.

Namunada berilgan tasviriy ifodalarni izohlashdan oldin, tasviriy ifoda haqida ma'lumot beramiz.

Tasviriy ifoda – predmet, voqea va hodisani o‘z nomi bilan emas, balki muhim xususiyatini tasvirlash orqali ifodalovchi birikma: oq oltin-paxta, oq oltin ijodkorlar-paxtakorlar, kumush tola-pilla, va hakazo.

Tasviriy ifoda uslubiy vosita sifatida nutqqa ko‘tarinlilik, obrazlilik baxsh etadi, jamiyat taraqqiyoti talabidan kelib chiqib, lug‘at tarkibini boyitadi. Nutq jarayonida takror va qaytariqdan qochish imkonini beradi, notiqni so‘zamolikka, tinglovchini esa falsafiy mushohada etishga undaydi. Shuningdek, tasviriy ifoda faqat jozibadorlik va obrazlilik, nutqni boyitish, uning mazmunini kuchaytirish uchungina emas, balki jamiyatning olg‘a qadam qo‘yishiga to‘sqinlik qilayotgan illatni fosh qilish, unga kulish va unga qarshi kurashga chaqirish maqsadida ham ishlatiladi. Binobarin tasviriy ifoda predmet voqea – hodisaning o‘z nomi orqali yuzaga chiqmagan muhim xususiyatini tasvirlab, bo‘rttirib, izohlab va to‘ldirib ko‘rsatishda muhim nutqiy vosita hisoblanadi.

Tasviriy ifoda ko‘proq ot va sifat turkumiga mansub bo‘ladi. Baz’an ikki predmetga bitta tasviriy ifoda (aql gimnostikasi-matematika, shaxmat) yoki bitta predmetga ikkita tasviriy ifoda qo‘llanishi (zangori ekran, oynai jahon-televizor) mumkin.

Bilim bulog‘i – kitob. Inson hayoti davomida kitob bilan oshno bo‘lib yashaydi, o‘zi uchun kerakli bo‘lgan ma’naviy ozuqani kitobdan oladi. Kitob insonning eng yaqin do‘sti, ustoz deyishimiz ham mumkin.

Hayot ko‘zgusi – maktab. Yurtimiz va dunyo mamlakatlarida sodir bo‘layotgan ijtimoiy, siyosiy, madaniy hamda iqtisodiy yangiliklarni biz gazeta orqali bilamiz va tahlil qilamiz.

Ilm o‘chog‘i – maktab. Har bir inson dastlabki savodini maktabda oladi, bola qalbi bilan dunyoni ko‘radi, ustoz muallimlardan saboq olib maktabda kamolotga yetadi. Bilamizki taom albatta o‘choqda pishiriladi va dasturxonda tanavvul qilinadi, bola ham ilm ochog‘ida tarbiyalanadi.

O‘yin topshiriq orqali o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlab olganimizdan so‘ng.

300 – mashqni bajartiramiz. Mashq shartiga ko‘ra berilgan otlarni hayvon o‘simlik, oziq – ovqat, kiyim – kechak, idish – tovoq, ish qurollari, osmon jismlari kabi ma’no guruhlariga ajratish lozim. Biz mavzudan kelib chiqib mashq shartiga biroz o‘zgartirish kiritamiz. Ot so‘z turkumiga mansub so‘zlarni sinf taxtasiga yozib qo‘yamiz o‘quvchilar esa ushbu so‘zlar qatnashgan iboralarni topadilar.

Qoshiq, qosh, qor, qorachiq, hasrat, hiqqildoq, eshak, chuchvara, xamir, egar, tirnoq, tor, tarasha, tarvuz, temir, tayoq, soch, suv, sut, sabr, sir, sichqon, po‘stak, panja, patir, non, ovoz, moy, kurak, kapalak.

Bu mashqlarni o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linib yuqoridagi so‘zlar qatnashgan iboralarni topadilar.

Namuna

1. Xamirdan qil sug‘irganday
2. Chuchvarani xom sanamoq
3. Ish bitguncha eshak suvdan o‘tguncha
4. Joni hiqildog‘iga keldi
5. Hasratidan chang chiqadi
6. Ko‘zining qorachig‘i qinidan chiqib ketguday
7. Qordan qutilib, yomg‘irga tutilmoq
8. Qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqarmoq
9. Bir qoshiq suv bilan yutguday
10. Otdan tushsa ham egardan tushmaslik
11. Tirnoq orasidan kir izlamoq
12. Do‘ppisi tor keldi
13. Tomdan tarasha tushganday
14. Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi

15. Temirni qizig'ida bosmoq
16. Alifni kaltak diyolmaslik
17. Tepa sochi tikka bo'lmoq
18. Ona suti og'ziga keldi
19. Sabr kosasini to'ldirmoq
20. Miridan sirigacha
21. Sichqonning ini ming tanga bo'ldi
22. Po'stagini qoqmoq
23. Bosh panjani og'ziga tiqmoq
24. Xamir uchidan patir
25. Nonni tuyaday qilmoq
26. Bir ovozdan
27. Moy tomsa, yalagudek
28. Kurakda turmaydigan gap
29. Kapalagi uchdi

Ushbu topshiriq o'quvchilarda qiziqish uyg'otish bilan birgalikda biroz qiyinchilik ham tug'dirishi mumkin. Bu qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun o'qituvchi o'yin boshlanishidan oldin bir – ikkita misol keltirishi lozim bo'ladi. Topshiriq yakunida qaysi guruh tez va ko'p ibora topa olgan bo'lsa o'sha guruh g'olib bo'ladi va rag'batlantiriladi.

Dars davomida quyidagi o'yin topshiriqni o'quvchilarga bajartirishimiz mumkin. O'yin "Ma'nosini kim biladi?" deb nomlanib o'quvchilar "Bilimdonlar" va "Zukkolar" deb nomlangan guruhlariga bo'linadi. Birinchi "Bilimdonlar" guruhi, bir iborani aytadi masalan; shovqin solmoq, Ikkinchi "Zukkolar" guruhi esa shu iboraning ma'nodoshi sinonimini topadilar, masalan; boshiga ko'tarmoq o'yin shu taqlid davom ettiriladi. Qaysi guruh iboralarni to'liq topib, mashqni to'g'ri bajarsa o'sha guruh g'olib bo'ladi va rag'batlantiriladi.

Namuna

1 – guruh

Bir chimdim
 Boshiga ko‘tarmoq
 Boshiga yetmoq
 Bo‘yniga olmoq
 Dabdalasi chiqdi
 Dimog‘i chog‘ bo‘ldi
 Yuragini hovuchlab mijja qoqmadi
 Mijja qoqmadi
 Yuragi shuv etib ketdi
 Esi og‘di
 Yoqasini ushladi
 Shamolga uchdi
 Jigaridan urmoq
 Ignadek “ni tuyadek” qilmoq
 Iziga tushmoq
 Ko‘zi yetadi
 Ko‘kragi tog‘day ko‘tarildi
 Qattiq ko‘ngil
 Luqna tashlamoq

2 – guruh

Bir shingil
 Shovqin solmoq
 Boshini yemoq
 Zimmasiga olmoq
 Abjag‘i chiqdi
 Ko‘ngli ochildi
 Jonini hovuchlab
 Ko‘z yumadi
 Yuragi orqasiga tortib ketdi
 Aqldan ozdi
 Hayratda qoldi
 Zoye ketdi
 Yuragidan urmoq
 Pashshadan fel yasamoq
 Payiga tushmoq
 Aqli yetadi
 Ko‘ngli tog‘dek ko‘tarildi
 Tosh ko‘ngil
 Gap qistirmoq

Bu o‘yin topshiriq o‘quvchilarning fikrlashlarini o‘z ustida ko‘proq ishlashini ta‘minlaydi. Iboralarning ma‘nodoshligini yaxshi ajratib olishlariga va shu iboralarni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llashga imkon beradi.

Uyga vazifa qilib ma‘lum bir asardan iboralar qatnashgan gaplarni topib yozib kelishni buyuramiz.

Namuna

“Aya, o‘lgur so‘xti sovuq jo‘nadimi? Nazarimda hovlimiz, uyimiz kengayib qolganga o‘xshaydi – ya” – dedi xoxolab Tansiq (Oybek, Oltin vodiyan shabadalar).

Dalada suqsurday qiz – juvonlarimiz ter to‘ksa – yu, Qo‘chqorbeklar tog‘ni talqon qiladigan paytida idora qorovuli bo‘lib o‘tirsa (Mirmuhsin, Momo).

U dengiz haqida gapirganda, yuzlari, ko‘zlari biram g‘alati bo‘lib ketardiki, beixtiyor esing og‘ib qoladi (Said Ahmad Sevginga sodiqman).

Bu topshiriq o‘quvchilarni mustaqil ravishda izlanishga, badiiy asarlar o‘qishga dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi. Badiiy adabiyotga havas, qiziqish tuyg‘ularini yanada kuchaytiradi.

Kumush choyshab–qor. Qish fasli kirib kelishi bilan ushbu fasl ziynati bo‘lgan qor yog‘adi. Qor yog‘ganda butun dala – tuz oppoq gilam (choyshab)ga. Hamma yoq xuddi kumush kabi tovlanadi, shuning uchun ham biz qorni kumush choyshab deymiz.

Ma‘rifat maskani–kutubxona. Biz o‘zimiz uchun zarur bo‘lgan barcha ma‘lumotlarni, badiiy asarlarni, gazeta va jurnallarni kutubxonadan topamiz. Kutubxona muqaddas joy, ma‘rifat maskani deyilishiga sabab insonlar qandaydir bilimlarni kutubxonadan oladi bilimi va tafakkuri shakllanadi. Demak u ma‘rifatli inson bo‘ladi.

O‘rmon malikasi–archa. O‘rmon deganda ko‘z oldimizga, albatta archa daraxtlari keladi. O‘rmonlarni biz yam-yashil, navqiron archalarsiz tasavvur qila olmaymiz. O‘rmonda boshqa daraxtlar ham o‘sadi, ammo archaning chiroyi va ko‘rki o‘rmon malikasi bo‘lishiga asos bo‘la oladi.

Oltin boshoq – bug‘doy. Biz bilamizki bug‘doy pishib yetilganda xuddi oltin singari sariq rangga kiradi. Boshoqlari oltin misol tovlanib

kishining koʻzini quvnatadi. Bugʻdoydan (b) muqaddas non tayyorlanadi. Shuning uchun ham oltin boshoq deb eʼzozlanadi.

Osmonning koʻz yoshlari – yomgʻir. Bahor va kuz fasllarida koʻp yomgʻir yogʻadi. Yomgʻirni osmonning koʻz yoshlariga oʻxshatilishi yomgʻir yogʻayotganda osmon yigʻlayotgandek, gʻam – anduxda qolgandek taasurot qoldiradi. Sokin kechalarda tinmay yogʻgan yomgʻirga nisbatan ushbu tasviriy vositani qoʻllashimiz mumkin.

Yurt boshi – Prezident. Har bir mamlakatning boshi yaʼni prezidenti bor. Prezident xalq orasidagi eng bilimdon, siyosatchi, iymon eʼtiqodli eng muhimi xalqni oʻz soʻziga ishonтира oladigan, uni toʻgʻri yoʻlga boshlaydigan insonlar boʻladi. Xalqning otasi hisoblanadi.

Dengiz hokimi – Kit. Kit juda katta suv hayvoni hisoblanib dengiz va okeanlarda yashaydi. Bu tasviriy vosita biz uchun yangi, chunki kit bizning hududimizda yoʻq.

Bahor elchilari – qalidirgʻochlar. Bahor kelib kunlar isiy boshlashi bilan issiq oʻlkalarga uchib ketgan qalidirgʻochlar qaytadi va uylarning ayvonlariga peshtoqiga in qurib bola ochishadi. Qalidirgʻochlarning uchib kelishi bahor kelganligidan darak beradi.

Insonning doʻsti – it. It eng vafodor va sodiq hayvon hisoblanadi. Egasini xavf xatardan himoya qilishga harakat qiladi. Oʻzi yashayotgan xonadonni tun-u kun qoʻriqlaydi.

Oʻquvchilar xuddi shu tarzda oʻzlari yozgan tasviriy vositalarni izohlaydilar. Bir oʻquvchi izohlagan tasviriy vositani boshqa oquvchilar bir-birlarining fikrlarni tinglab soʻz boyligini hamda tasviriy vositalar haqidagi bilimlarini yanada mustahkamlaydi.

3-bob: O‘RIN JOY OTLARI BILAN BOG‘LIQ BO‘LGAN IBORALAR VA TASVIRIY VOSITALARNI O‘TISH

Biz turdosh otlar bilan birgalikda iboralar va tasviriy vositalarni chambarchas bog‘lagan holda o‘quvchilarning ot hamda ibora va tasviriy vositalar haqidagi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz.

Buning uchun bir shaxs otlari, narsa otlari va o‘rin joy otlari bilan bog‘liq iboralar va tasviriy vositalarni birgalikda o‘tish, darslar jarayonida qo‘llash usullarini o‘yin topshiriqlar asosida bajarishga harakat qildik.

O‘rin joy otlari -zor, -loq, -iston, -goh, -xona qo‘shimchalari yordamida yasaladi.

O‘rin joy otlarini turar joy, o‘simliklar o‘sadigan joy, dunyo tomonlari, odamlar to‘planadigan joy kabi ma’no guruhlariga ajratish mumkin.

O‘rin joy otlarining ma’no guruhiga misollar va misollarning izohlari keltirilga ko‘rgazmali qurollardan foydalanishimiz mumkin.

Namuna

O‘simlik o‘sadigan joy nomlari va ularning izohi

1. Tolzor – faqat tol ekiladigan maydon, yer. Tolzorga suv quyiladi.
2. Tokzor – tok o‘simligi bilan band bo‘lgan maydon, yer. Tokzorlar ko‘paymoqda.
3. Qo‘g‘azor – qo‘g‘a o‘sgan joy. Qo‘g‘azorda ov qilmoq.
4. Pichanzor – pichanbop o‘t o‘sgan maydon pichanzorda ishlamoq.
5. Ajriqzor – ajriq bosgan yer maydon. Hamma yoq ajriqzor bo‘lib ketibdi.
6. Behizor – behilar ekiladiga joy. Behizorga joy qildik.
7. Bodomzor – bodom ekiladigan ekinzor, bog‘. Bodomzorga bormoq.

8. Ekinzor – ekinlar o‘sgan maydon, yer. Ekinzorlar ko‘zga tashlandi.
9. Tutzor – faqat tut ekilgan yer, maydon. Tutzorlar ipakchilik uchun juda zarur.
10. Terakzor – teraklar ekilgan joy, faqat terak ekilgan maydon. Terakzor ancha salqin va shaboda edi.
11. Changalzor – changal (tikanli, buta o‘simliklar) bilan qoplangan joy. Changalzordan tustovuq ovozi eshitildi.

Odamlar to‘planadigan joy nomlari.

1. Sayrgoh – sayr qilinadigan inshootlardan iborat bo‘lgan joy. Navoiy bog‘i o‘rnida ajoyib sayrgoh bunyod bo‘ldi.
2. Saylgoh – xalq sayllari o‘tkazilib turiladigan joy. Bog‘ishamol mehnatkashlarinig chinakam saylgochi .
3. Ziyoratgoh – Ziyorat qilinadigan muqaddas joy; qadamjo Nurota ziyoratgohi
4. Qarorgoh – yashash joy, maskan, davlat boshliqlarining turar joyi. Prezident qarorgohi.

-zor -loq -iston -goh -xona qo‘shimchalari orqali yasalgan o‘rin joy otlari.

1. O‘tloq – o‘t o‘sgan, o‘t ko‘p bo‘ladigan joy. Qo‘ylarni o‘tloqda boqmoq.
 2. O‘rmonzor – o‘rmon egallagan sarh, joy. Sun‘iy o‘rmonlar barpo etildi.
 3. Omborxonona – ombor joylashgan xona, bino. Omborxonaga qo‘ymoq.
- O‘zbekiston – Markaziy osiyoda joylashgan respublika davlat.
O‘zbekiston jannatmakon yurt.

Shuni xam o‘ytish kerakki o‘rin joy oti yasovchi qo‘shimchalar ayrim o‘rinlarda semantik tafovutga ega bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan o‘tloq o‘rin joy otidagi loq yasovchisi o‘rnida zor qo‘shimchasini ishlatib

bo'lmaydi, chunki unda ma'no o'zgarishi yuz beradi: o'tloq – umuman o't o'sadigan joy, o'tzor – o'ti ko'p joy. Demak – zor va – loq offekslari

bir qarashda sinonimik hisoblansada ular simantik jihatdan boshqa boshqa ma'noli so'zlar yasar ekan.

O'quvchilarga o'rin – joy otlarini bu tarzda tushuntirish ancha samarali usul hisoblanadi. Bunda o'quvchilar ko'rgazmali qurolda keltirilgan o'rin joy otlarini esda saqlab qoladilar. Mavzuga oid bilim va malakalari oshadi. Keltirilgan o'rin joy otlariga misol bo'lgan so'zlar va ularning izohi o'quvchilar nutqini oshirishga xizmat qiluvchi vosita hisoblanadi.

Ona tili darslari asosan o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishga qaratilgan bo'lib, bu ancha murakkab va mashaqqatlidir. O'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish lug'at boyligini oshirish, ona tili o'qituvchilarning vazifasi va burchi hisoblanadi.

Dars jarayoni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish bu borada yaxshi samara beradi.

O'quvchilar avvalgi mavzularda ya'ni shaxs va narsa otlari bilan bog'liq iboralar va tasviriy vositalarni qanchalik o'zlashtirganliklarini bilish maqsadida dars avvalida quyidagi o'yin topshiriq asosida bilimlarini sinab ko'ramiz.

Sinf o'quvchilarini “Oq oltin” “Dala malikasi” “Kumush to'la” “Oltin boshqoq” nomli guruhlariga bo'lamiz. Bu guruhlar vazifalarni bajarish jarayonida bir birlari bilan musobaqalashishlari lozim. Darsni “Aqliy hujum” ya'ni Iboralar sabog'i, deb nomlangan musobaqadan boshlaymiz. Bunda bir guruh iboraning birinchi qismini aytsa, ikkinchi guruh uning davomini topishi kerak bo'ladi. Musobaqa quyidagicha o'tadi:

1. “Oq oltin” guruhi: Bir qulog'idan kirib,

“Dala malikasi” guruhi: ikkinchi qulog'idan chiqmoq.

2. “Kumush tola” guruhi: Bir o‘q bilan
“Oltin boshqoq” guruhi: ikki quyovni urmoq.
3. “Oq oltin” guruhi: do‘ppini ol desa
“Dala malikasi” guruhi: kallasini olmoq.
4. “Kumush tola” guruhi: yerga kirsqa qulog`idan
“Oq oltin” guruhi: osmonga chiqsa oyog`idan tortmoq
5. “Oq oltin” guruhi: ignadek gapni
“Dala malikasi” guruhi: tuyadek qilmoq
6. “Kumush tola” guruhi: ishi bitdi
“Oq oltin” guruhi: eshagi loydan o‘tdi
7. “Oq oltin” guruhi: kechani kecha
“Dala malikasi” guruhi: kunduzni kunduz demay
8. “Kumush tola” guruhi: sichqonning inini
“Oq oltin” guruhi: ming tanga qilmoq
9. “Oq oltin” guruhi: yerga kirsqa qulog`idan
“Dala malikasi” guruhi: osmonga chiqsa oyog`idan tortmoq
10. “Kumush tola” guruhi: ikki oyog`ini
“Oltin boshqoq” guruhi: bir etikka tiqmoq

Iboralar o‘quvchilarni yaxshi fazilatlar tomon boshlaydi sabr qanoatli, mehnatkash bo‘lib yetishishlarida quloqsizlik, yalqovlik, dangasalik kabi, yomon odatdan uzoq bo‘lishga chorlaydi.

Bundan o‘qituvchi o‘quvchilar aytgan iboralar haqidagi bilimlarini yanada mustahkamlashi mumkin. Masalan: bir qulog`idan kirib ikkinchi qulog`idan chiqib ketmoq iborasini izohlashda o‘qituvchi o‘z mahorati va tajribasidan kelib chiqib o‘quvchilarga moslashtirishi mumkin bo‘ladi. Bu ibora etiborsiz, darsga qiziqmaydigan, kattalarning gapini olmaydigan, xotirasida saqlab qolmaydigan, o‘quvchilarga nisbatan ishlatiladi deb aytib o‘tsa o‘quvchilar o‘zlariga tegishli xulosa chiqarib oladilar. Bunday xulosa

chiqarishning yana bir afzal tomoni shundaki. Sinfdagi etiborsiz, loqayd, o'quvchilarni aynan takidlamasdan ularni yaxshi o'qishlariga undashdir. Biz o'quvchini dangasalikdan, bilimsizlikda ayblab uni o'rtoqlari oldida izza qilsak bu o'quvchining darsga bo'lgan eng yomoni ustoziga bulgan mehri nafratga aylanishi ham mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak tahlil qilinayotgan iboralar maktab hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lishi yoki boshqa iboralarni ham maktab, o'quvchilar hayotiga bog'lab tahlil qilish maqsadida muvofiq bo'ladi.

Bu o'yin o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishiga, og'zaki va yozma nutqini o'stirishga, iboralarni mustaqil izohlashiga yordam beradi.

O'yinda qaysi bir guruh faol qatnashib, iboralarni topib, ularni topib davom ettira olsa, o'sha guruh g'olib sanaladi va o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi.

Keyingi musobaqa "suratlar tilga kirsin" o'yini tarzida o'tkaziladi. Bunda guruhlarga: paxta, makkajo'xori, bug'doyzor, xarbiylar, shifokor qushlar, rassom tasvirlangan rasmlar – sinf taxtasiga osib qo'yiladi. Guruhlar o'zlari xohlagan (tanlagan) biror rasm asosida 5 daqiqa ichida rasm she'r yoki nasriy matn tuzish va tuzilgan she'r yoki matnni guruh a'zolaridan biri o'qib berishi lozim bo'ladi.

Bu vazifani bajarish jarayonida o`quvchilar asosiy etiborlarini o`zlari tanlagan rasmlarga qaratadilar. Tanlangan rasm, masalan: paxta bo`lsa, paxtani ifodalovchi tasviriy vositani qatnashtirib matn tuzadilar. Vazifani o`quvchilar quyidagicha bajarishlari mumkin.

Rasmlar tasviriy ifoda talqinida



Paxta-Oq oltin

Rasmlar tasviriy ifoda talqinida



Pilla-Kumush tola

Rasmlar tasviriy ifoda talqinida



Bug'doy-Oltin boshog

Rasmlar tasviriy ifoda talqinida



Makkajo‘xori-Dala malikasi

Namuna.

“Oq oltin” guruhi” Paxta – oq oltin.

Paxta – yurtimiz boyligi. Bizning milliy g`ururimiz. Bobo dehqon bahor kelishi bilan dalaga chigit qadaydi. Kuzda esa u xirmon xirmon paxta oladi. Shungacha qanchadan qancha kuchini, vaqtini sarflaydi. Paxta – oq oltinimiz. Paxta tolasidan gazlamalar tayyorlanadi. Chigitdan esa yog` olamiz. Xalqimiz hayotini farovon qilish uchun uni yetishtiramiz. O`zbekiston paxtasi bilan dunyoga mashhur.

“Dala malikasi” guruhi:

Makkajo`xori – dala malikasi.

Makkajo`xori – chiroyli, yam yashil o`simlik. U insonlar, parrandalar va hayvonlar uchun to`yimli ozuqa. Makkajo`xori donidan ko`p shirin narsalar, masalan: biz bolalarning eng yaxshi ko`radigan narsalarimizdan biri bodroq tayyorlanadi. So`talarini qizchalar qo`g`irchoq qilib o`ynaydi, yana so`tasini qaynatib istemol qilish ham mumkin. Dalalarimizga chiroy bag`ishlagani uchun ham makkajo`xorini dala malikasi deyishadi.

“Kumush tola” guruhi:

Pilla – kumush tola

Bahor faslining aprel, may oylarida ipak qurti boqiladi. Ipak qurti faqat tut daraxtining barglari bilan oziqlanadi. Ma`lum vaqt o`tgach ipak qurtlari pilla o`raydi. Pilladan kumush rangli tola olinadi. Undan ayollarimizning, qizlarimizning sevimli matolar bo`lgan atlas, adras kabi matolar to`qliadi. Bu matolar bilan o`zbek xalqi jahonga mashhur bo`lgan.

“Oltin boshqoq” guruhi:

Bug`doy – oltin boshqoq.

Dalaga sepsangiz don
 O‘sadi shox bug`doyjon
 Bo‘ladi katta xirmon
 Oltin boshog – bug`doyjon
 Bizga bo‘lar issiq non
 Qushlargachi, yemish don
 Xosildan barcha xandon
 Oltin boshog – bug`doyjon

Bu o‘yin topshiriq o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otadi. Vaqt belgilanganligi esa, ularni tez va chaqqon, har bir ishda chaqqon bo‘lishga undaydi. Rasmlarga asoslanib matn yaratish o‘quvchilarning yozma nutqini yanada rivojlantirishga zamin yaratadi. Topshiriqdan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilar ongida tasviriy vositalar bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlarni rasm asosida mustahkamlashdir.

O‘yin topshiriqda guruhlarning tuzgan nasriy matn va sherlarining ma`no mazmuniga qarab baholanadi va rag`batlantiriladi.

O‘qituvchi darsning bu qismiga yakun yasab matnlar va sherlarda paxtani – oltinga, ipakni – kumushga, bug`doy boshog`ini ham – oltinga qiyoslash orqali tasviriy ifodalash vositalarining bir turi ekanligini o‘quvchilarga tushuntirib o‘tishi lozim.

Qayer? so‘rog`iga javob bo‘lib o‘rin joy ma’nosini bildiruvchi otlar o‘rin joy otlari sanaladi. Bunday otlar o‘rin joy manosi bilan birga narsalik manosini ham bildiradi. Shuning uchun qayer? So‘rog`i bilan birga nima? So‘rog`ini olish ham mumkin.

Barcha o‘quvchilarga bilib oling ruknidagi nazariy ma’lumot tushuntirib izohlangandan so‘ng “O‘yla, izla, top” o‘yinini o‘tkazishimiz mumkin. O‘yinda barcha guruhlarga test savollari va javob variantlari

o‘qib eshittiriladi guruhlarga to‘g‘ri javoblarni belgilaydi. Test savollari quyidagicha bo‘lishi mumkin.

Namuna:

1. “Kun chiqar mamlakat” bu tarif qaysi davlatga tegishli?
 - A) Xitoy
 - B) Koreya
 - C) Yaponiya
 - D) Fransiya
2. Ma’rifat maskani tasviriy ifodasini aniq atamasini toping.
 - A) Maktab
 - B) Kutubxona
 - C) Litsey
 - D) Bog`cha
3. Mamlakatimiz poytaxti Toshkent ... deb ham ataladi.
 - A) Non shahri
 - B) Do‘stlik shahri
 - C) Mehr muruvvat shahri
 - D) Mexmondo‘stlik shahri
4. Tasviriy ifoda mavjud bo‘lgan qatorni toping
 - A) Hovli yog` tushsa yalagudek edi
 - B) O‘g`li iztirob bilan otasiga qaradi
 - C) Oz o‘yla, ko‘p tingla
 - D) Shahrimizda mo‘yqalam sohiblari ko‘rgazmasi ochildi
5. Yaylov bahodirlari tasviriy ifodasining atamasini toping?
 - A) Cho‘pon
 - B) Ovchi
 - C) Dehqon
 - D) Traktorchi

6. Qora oltin tasviriy ifodasining aniq atamasini toping?

- A) Neft
- B) Temir
- C) Ko'mir
- D) Gaz

7. Bahorda issiq o'lkalardan ... uchib, kela boshlaydi. Gapida tushirib qoldirilgan tasviriy vositani toping.

- A) Samo lochini
- B) Qanotli do'stlar
- C) Temir qanot
- D) Sahna bulbuli

8. Avstraliya qit'asiga tegishli tasviriy vositani toping.

- A) qo'shiqlar mamlakati
- B) kunchiqar mamlakat
- C) yashil qit'a
- D) haqiqat qo'rg'oni

9. Qo'shiqlar mamlakati debs sho'xrat qozongan davlat qaysi?

- A) Fransya
- B) Pokiston
- C) Hindiston
- D) Qozog'iston

10. Shaxs otiga misol bo'lgan tasviriy vositalar atamasini toping

- A) Vatan posbonlari, mo'yqalam soxiblari
- B) Dunyo tomi, zangori shula
- C) Po'lat qush, ilm zahmatkashlari
- D) Qalam ahli, ilm o'chog'i

Guruhlar test javoblarining natijalariga asoslanib rag'batlantiriladi. Bu testdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning darslar jarayonida o'zlashtirgan bilimlarini sinovdan o'tkazish Dars davomida mavzularga oid testlar, olib turish o'quvchilarning darsga etiborini, qiziqishini oshirishga yordam beradi. O'quvchilar darsdagi bilimlarini test orqali mustahkamlab oladi. Agar darsni etiborsiz tinglagan bo'lsa test natijalari

yaxshi bo'lmaydi. Yon atrofdagi o'rtoqlariga qarab o'zlashtira olmagan o'quvchilar xam yaxshi o'qishga harakat qiladilar.

Test natijalari e'lon qilingandan so'ng "Shaharlarga sayohat" o'yin topshirig'ini o'quvchilarga tushuntiramiz. Bunda **Samarqand, Toshkent, Shaxrisabz, Farg'ona**, kabi shaharlarimiz aks etgan suratlar ilinadi. Har bir guruh rasmlarga qarab o'zlariga berilgan shaharni tasviriy vositalardan foydalanib ta'riflashadi va matn tuzishadi.

Rasmlar tasviriy ifoda talqinida



Shahrisabz-Yashil shahar

Rasmlar tasviriy ifoda talqinida



Toshkent-Non shahri

Rasmlar tasviriy ifoda talqinida



Samarqand-Sharq gavhari

Rasmlar tasviriy ifoda talqinida



Farg'ona-O'zbekistonning
oltin vodiysi

Namuna:***“Oq oltin” guruhi:******Shahrisabz – yashil shahar***

Qashqadaryo viloyatining go‘zal shaharlaridan biri Shahrisabzdir. Shahrisabz – sohibqiron Amir Temur tavallud topgan yurt. Shahrisabz yashil shahar deyilgan. Oqsaroy obidasi shahar ko‘rki hisoblanadi. Mustaqillik sharofati bilan Shahrisabzda yangi binolar va ilm maskanlari barpo etilmoqda.

Dala malikasi guruhi:**Samarqand yer yuzining sayqali**

Samarqand qadimiy tarixiy yurt. Shahar feruza gumbazlar makoni. Samarqand Amir Temur saltanatining poytaxti bo‘lgan. Yer yuzining sayqali bo‘lgan Samarqandni butun dunyo xalqlari biladi. 1996 yil Amir Temur tavalludining 600 yilligiga bag‘ishlab Toshkent, Samarqand, Shahrisabzda Sohibqiron haykali o‘rnatilgan. Samarqand nonlari bilan ham mashhur.

Kumush tola guruhi***Farg‘ona – O‘zbekistonning oltin vodiysi***

Farg‘ona shahri O‘zbekistonimizning oltin vodiysi sanaladi. Vodiyning tilyorar qovunlari. Shirin shakar uzumlari, Quva anorlari. Marg‘ilon xon atlaslari va adraslari bugungi kunda dunyoga mashhur. Farg‘onani hunarmandlar shahri deb ham atashadi.

“Oltin boshqoq” guruhi***Toshkent – non shahri***

O‘zbekistonimizning yuragi Toshkent shahri hisoblanadi. Toshkent sharqning oltin darvozasi. Toshkent hur diyorimizning poytaxti. Sharq

mash'ali Toshkent Non shahri deb ham ataladi. Bugungi kunda Toshkentimiz dunyodagi eng chiroyli shaharlardan biri.

Bu o'yin topshiriq o'quvchilarni O'zbekistonimizning tarixiy shaharlarini tariximizni qanchalik yaxshi bilishlarini sinash bilan birgalikda o'z bilimlarini yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Dars davomida o'quvchilarga o'rin joy nomini bildiruvchi iboralarni topishni buyurishimiz ham mumkin.

Namuna

1. Ko'klarga ko'tarmoq
2. Ko'kka sovurmoq
3. Ko'z ostidan
4. yo'q yerdagi
5. O'rniga qo'yimoq
6. Balanddan kelmoq
7. Osmondan kelmoq
8. Bir yostiqa bosh qo'yimoq
9. Bir yoqadan bosh chiqarmoq
10. Og'zi qulog'iga yetmoq
11. Oyog'iga bolta urmoq

Bunda har bir guruh mustaqil tarzda iboralarni topadilar. Qaysi guruh o'rin joy oti bilan bog'liq iboralarni ko'p topa olsa o'sha guruh g'olib bo'ladi va rag'batlantiriladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki dars jarayonida o'quvchilarni guruhlarga bo'lib darsni o'yin musobaqa tarzida olib borish o'quvchilarning qiziqishlarini oshiradi. Topshiriqlarni guruh guruh bo'lib bajarishning ahamiyati juda katta. Eng avvalo guruhlarga bo'lish jarayonida o'qituvchi bir guruh a'lochilardan, bir guruh yaxshi o'zlashtira

olmaydigan o'quvchilardan iborat bo'lib qolmaganligiga e'tibor qaratishi lozim. Guruh bo'lib ishlash jarayonida guruh a'zolarining barchasi bir maqsadda, yani g'alabani ko'zlab harakat qiladilar. Buning uchun bor imkoniyatlarini sarflaydilar.

Guruh hamkorligi o'quvchini muvaffaqiyat sari yo'naltirishi, o'ziga ishontirishi, mustaqil fikrlashga undashi, bundan tashqari orqada qolishga va orqada qolganini sezishga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan

V.A. Suxomlinskiyning shunday so'zlari bor, "bola o'lashtirishi, yaxshi o'qishi uchun, orqada qolmasligi, yaxshi o'qishi lozim". Lekin bu paradoksdak tuyilayotgan holat pedagogika ishining butun murakkabligidan iborat. O'qishga qiziqish muvaffaqiyatdan tug'iladigan ilhom bor joydagina bo'ladi."

Guruh bo'lib ishlashda shunday ulug'vor usullar mavjud bo'lib unda har bir o'quvchi o'zini shaxs deb his qiladi. O'qituvchining unga etiborini sezadi, ayni chog'da o'qituvchining etiborini tortishga qiziqadi.

1. O'quvchi har bir darsda o'z mehnatining munosib bahosini olishga harakat qiladi.
2. O'ziga mos masalalarni tanlaydi
3. Har bir o'quvchining javobi hurmat va bahoga sazovor bo'lishi lozim.
4. Aslida har bir o'quvchi hurmatga loyiq bo'lib, uning qobilyatiga shubha bilan qarash haqorat ekanligini to'g'ri tushunishi.

Hamkorlik uchun ikki shart:

- o'quvchilarning, hatto, eng kichik qobilyatlarini rivojlantirish;
- o'quvchilarning hissiyot va sezgilarini oshirish.

Bilish hursandchiligi o'quvchini faollashtiradi bu olingan bilimlarni yanada chuqurlashtiradi va mustahkamlaydi.

Bolaning darsdagi faolligi: ruhiy holati va kayfiyati oldin ko'p hollarda qanday bo'lgan va guruh bilan ishlash jarayonida qanday o'zgarishlar ro'y bermoqda, degan nigoh bilan o'quvchiga yaqin bo'lib borish kerak.

Dars so'ngida faol ishtirok etgan guruhlar rag'batlantiriladi. Guruhlarning bajarilgan topshiriqlari o'qituvchi tomonidan izohlanadi, fikr bildiriladi. Eng faol qatnashgan guruh o'qituvchi tomonidan e'lon qilinadi va rag'batlantiriladi, qolgan guruhlar ham baholanadi.

Uyga vazifa qilib o'rin joy nomi bilan bog'liq ibora va tasviriy vositalarni qatnashtirib gaplar tuzib kelish buyuriladi.

XULOSA

Respublikamiz mutaqillikka erishgach hayotimizning barcha soxalarida bo'lganidek, ta'lim sohasida ham ulkan vazifalar belgilandi. Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston respublikasi Oliy majlisi XIV sessiyasida so'zlagan nutqida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturidagi" vazifalarni hayotga tadbiiq etish hech bir mubolag`asiz, strategik maqsadlarimiz, farovon, qudratli demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etishimizning asosi bo'lmog`i lozimligini takidlaganlar.

Mustaqil O'zbekistonning ravnaqi uchun olib borilayotga iqtisodiy, ijtimoiy madaniy-manaviy soxalaridagi keng ko'lamli ishlar, O'zbekiston respublikasining Talim to'g`risidagi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'limning barcha bo'g`inlarida ona tili o'qitishni taqazo etadi. Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarda yuqori malakali mutahassislarni roli benihoya kattadir.

Prezidentimiz – mamlakat taqdiri yoshlarning qo'lida ta'lim olish eng muhim masala ekanligini takidlab o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida shunday fikrlarni keltiradi. "Biz xalqimizning hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, aqlli va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun" bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi hech shubhasiz beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada xushyorlik va sergakligimizni qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zboshimchalikga tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g`rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir oqibatda

o‘zimiz intilgan, umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.

Bu masalalarni amalga oshirishda o‘rta mahsus kasb hunar ta’limi ayniqsa ona tili fanini chuqur o‘qitish alohida etiborga loyiq. Hozirgi kunda yangi ta’lim tizimidagi zamonaviy texnologiyalar bilan taminlash borasida ko‘plab ishlar qilinmoqda.

Ushbu bitiruv malakaviy ishini ham yuqoridagi talablarga qisman bo‘lsada hissa qo‘shadi degan umiddamiz. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob va xulosadan iborat.

Kirish qismida ishning maqsadi vazifalari dolzarbligi va ahamiyati haqida qisqacha ma’lumot berildi.

Birinchi bob “Shaxs otlari bilan bog‘liq iboralar va tasviriy vositalarni o‘tish” bo‘lib, shaxs otlari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘tish jarayonida iboralar va tasviriy vositalarni qo‘llash o‘quvchilarga ma’lumot berish bilan birgalikda mashqlarni o‘tish jarayonida o‘yin topshiriqlardan samarali foydalanildi. Turli o‘yin topshiriqlar ishlab chiqildi bu o‘quvchilarning shaxs oti bilan birgalikda iboralar va tasviriy vositalar haqidagi bilimlarning mustahkamlashga yordam beradi va darsni qiziqarli o‘tishini ta’minlaydi.

Ikkinchi bob “Narsa otlari bilan bog‘liq iboralar” va tasviriy ifodalarni o‘tish” deb nomlangan.

Ushbu bobda-narsa otlari bilan bog‘liq ibora va tasviriy ifodalarga e’tibor qaratilgan. Nima so‘rog‘iga va javob bo‘luvchi iboralar ham tasviriy ifodalarni o‘quvchilarga o‘tish tushuntirish uchun turli xil o‘yin topshiriq va mashqlardan foydalanildi. Mavzuni bunday usulda o‘tish o‘quvchilarning so‘z boyligini oshiradi. Nutqining rang-barangligini ta’minlaydi. Bir so‘z bilan aytganda o‘quvchining nutq madaniyati takomillashib boradi.

Uchinchi bob “O‘rin joy otlari bilan bog‘liq” iboralar va tasviriy vositalardan o‘tish” bo‘lib bu borada asosiy e’tibor o‘rin joy otlari bilan bog‘liq tasviriy ifodalarga qaratilgan. O‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lgan turli o‘yin-topshiriqlar musobaqa shaklidagi mashqlar va test savollari keltirilgan.

Bir bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida turdosh otlar mavzusiga doir mashq va topshiriqlarni bajarish jarayonida pedagogik texnologiya asosida turli o‘yin, topshiriqlarni tavsiya qildi. Bu o‘yin topshiriq va mashqlar shu soha xodimlariga va ushbu sohaga qiziquvchilar uchun foyda keltiradi degan umiddaman

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I. A. Karimov. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”, Toshkent, “Sharq” nashriyoti 1998-yil.
2. I.Karimov. “Jahon moliyaviy inqirozi. O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari”. Toshkent., 2009-y.
3. Uzviylashtirilgan davlat dasturi. Toshkent, 2010-yil.
4. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. Ma’rifat gazetasi, 1998.1.04.
5. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. Ma’rifat gazetasi, 1998.1.04.
6. U.Tursunov, B.O‘rinboyev. “O‘zbek adabiy tili tarixi”, Toshkent. “O‘qituvchi”. 1982.
7. Yo.G‘ulomov va boshqalar. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, 1975 – y.
8. To‘qliyev B, Shamsiyeva M, Ziyotova T. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi”. Toshkent, 2006- yil.
9. A. Nurmonov, I. Ikromov, F. Boynazarov. “Yangi pedagogik texnologiya asoslari” falsafa va huquq INSTI. Toshkent, 2007-yil.
10. Almamatov T, Yodgorov Q, Pochchayeva G. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” metodik qo‘llanma Jizzax, 2006 yil.
11. Sh. Rahmatullayev. “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”, „O‘qituvchi” nashriyoti. Toshkent, 1978-yil.
12. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva. “Ona tili 6 – sinf uchun darslik”, “Tasvir” nashriyoti Toshkent., 2009-yil.
13. “Ona tili” 6 – sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma „Tasvir” nashriyot uyi. Toshkent, 2005-yil.
14. M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo‘ldoshev, D. Muhammedova. “O‘zbek tili praktikumi” “Iqtisod – moliya” nashriyoti. Toshkent, 2006-yil.

15. E'tibor Muhammedova. “Iboralar yuzasidan mashq va topshiriqlar” “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 2008-yil 5 – son.
16. M. Yo‘ldoshev. „Cho‘lponning xalq iboralaridan foydalanish mahorati” „O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali 1999- yil 6 – son.
17. Mamatov A. “O‘zbek tilida frazeologik iboralarning shakllanish masalalari” „O‘zbek tili va adabiyoti” 1994-yil 4 – 5 – 6 sonlari.
18. Muqaddas Toshturdiyeva “5- sinf o‘quvchilariga tasviriy ifodalash” vositalarini o‘rgatish tajribasidan „Til va adabiyot ta’limi” jurnali 2006-yil 3 – son.

MUNDARIJA

| | |
|--|-------|
| 1. Kirish----- | 2-8 |
| 2. 1-bob. Shaxs otlari bilan bog‘liq bo‘lgan iboralar va tasviriy ifodalarni o‘tish----- | 9-21 |
| 3. 2-bob: Narsa otlari bilan bog‘liq bo‘lgan iboralar va tasviriy ifodalarni o‘tish----- | 22-32 |
| 4. 3-bob: O‘rin joy otlari bilan bog‘liq bo‘lgan iboralar va tasviriy vositalarni o‘tish----- | 33-53 |
| 5. Xulosa----- | 54-56 |
| 6. Adabiyotlar ro‘yxati----- | 57-58 |

**Abdulla Qodiriy nomidagi JDPI o‘zbek tili va adabiyoti
fakultetining bitiruvchisi Narzullayeva Munisaning “Ona tili
darslarida ibora va tasviriy ifodalardan foydalanish”
mavzusidagi BMIga ilmiy rahbar**

X U L O S A S I

Ta’lim mazmunining tarkibiy qismlaridan biri o‘quvchi o‘zlashtirgan nazariy bilimlarni amaliyotda, nutq jarayonida qo‘llay olish malakasini shakllantirishdir. O‘quvchi leksikasini iboralar va tasviriy ifodalar bilan boyitish nutqning shakllanishi, takomili ta’sirchanligi jozibadorligi qiziqarliligini ta’minlovchi vositalardan biridir. Ona tili darslarida iboralar va tasviriy ifodalar haqida yetarli nazariy bilimlar berish va uni o‘quvchi nutqida qo‘llash malakasini hosil qilish yo‘llarini ishlab chiqish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash jarayonida Narzullayeva zaruriy ilmiy va metodik adabiyotlar bilan tanishdi hamda o‘zlashtirgan nazariy bilimlar asosida mazkur BMI ni tayyorladi. Mavzuning qo‘llash maydoni keng bo‘lgani uchun uni konkretlashtirib ot so‘z turkumi misolida tadbiiq qildi. Chunki iboralar ham, tasviriy ifodalar ham lug‘aviy birliklar bo‘lganligi sababli ularni ot so‘z turkumi doirasida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

BMI kirish va 3 bobdan iborat bo‘lib, ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligini ilmiy va ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, maqsad va vazifalari hamda amaliy ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Birinchi bobda ot turkumiga oid mavzularni o‘tishda iboralardan foydalanish metod va usullari ishlab chiqildi. Mavzularga doir grammatik

o‘yin topshiriqlar tavsiya qilindi hamda ularni qo‘llash yo‘l-yuruqlari ishlab chiqildi.

Ikkinchi bob tasviriy ifodalardan foydalanish metodikasiga bag‘ishlangan. Bunda ham zaruriy o‘yin-topshiriqlar tavsiya qilinib, ulardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilgan.

Narzullayeva Munisaning “Ona tili.....” mavzusidagi BMIning yakunlangan deb hisoblayman va uni Davlat imtihon komissiyasi oldida yoqlashga tavsiya qilaman.

Ilmiy rahbar:

dots.T.Almamatov